DEVONI SAYQALIY QO'LYOZMA NUSXALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Ikromova Xumora Ilich qizi
E-mail: xumoraikromova60@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23219248

Annotatsiya. Sobir Sayqaliyning "Devoni Sayqaliy" asari qo'lyozma nusxalarining matnshunoslik nuqtayi nazaridan o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda devonning turli qo'lyozma nusxalari tarkibi, matnning joylashish tartibi, kotiblik xususiyatlari, xat turi, qog'oz va kitobat an'analari, shuningdek, ayrim matniy tafovutlar qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Nusxalar o'rtasidagi farqlarni yuzaga keltiruvchi omillar, jumladan, kotiblarning matnga munosabati, ko'chirish jarayonidagi tushirib qoldirish, qo'shimcha kiritish va imloviy o'zgarishlar masalalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari "Devoni Sayqaliy"ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash, asarning asl matniga yaqin variantini aniqlash hamda shoirning adabiy merosini chuqurroq o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Sobir Sayqaliy, "Devoni Sayqaliy", qo'lyozma, qo'lyozma nusxa, matnshunoslik, manbashunoslik, qiyosiy tahlil, kotib, kitobat, nasta'liq, matn tafovuti, devon, mumtoz adabiyot, ilmiy-tanqidiy matn.

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida XVIII asr alohida o'rin tutadi. Mazkur davr adabiy muhitida ijod qilgan shoirlar o'zlaridan boy adabiy meros qoldirib, mumtoz she'riyatning mavzu, janr va badiiy-uslubiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirdilar. Ana shunday ijodkorlardan biri Sobir Sayqaliydir. Uning adabiy merosi o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, diniy-falsafiy, axloqiy-didaktik va irfoniy qarashlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda Sayqaliy XVIII asr o'zbek adabiyoti vakili sifatida qayd etilib, uning lirikasida diniy-falsafiy g'oyalar va turli she'riy san'atlarning qo'llanishi alohida o'rganilmoqda.

Sobir Sayqaliyning "Qissayi Sayqaliy" asarining qo'lyozma nusxasi juda ko'p xattot va kotiblar tomonidan ko'chrilgan. Shuning uchun ham asar keng tarqalgan.

Sobir Sayqaliy asarlari orasida eng ko'p tarqalgani uning "Qissayi Sayqaliy" asaridir. Asar qo'lyozmalaridan biri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida N 77 raqami bilan saqlanadi. Bu qo'lyozmaning kitobat sanasi 1274 xijriy (1858 milodiy) yil bo'lib, uni Mullo Abdulkarim valadi mulla Muhammad Hirotiy "Eshoni kalon" devonxonasida tahrir qilgan. Demak, bu qo'lyozma Sobir Sayqaliy vafotidan 60 yil o'tgach ko'chirilgan. "Qissayi Sayqaliy" dostonining keyingi nusxalari shu qo'lyozma asosida ko'chirilgan bo'lishi haqiqatga yaqindir.

Qo'lyozma 17X27 sm. hajmga ega bo'lib, muqovasi zamonaviy. Kitob ta'mirlangan. Qo'lyozma dastlab Alisher Navoiy yubileyi qo'mitasi mulki bo'lib kelgan (254 inv. raqam). Keyinchalik Qo'lyozmalar instituti, hozir esa Adabiyot muzeyi fondiga o'tkazilgan. Asar 604 sahifani tashkil etgan. Matn 9X18 sm. Hajmda ikki ustun qilib, qora siyohda nastaliq xatida yirik harflar bilan ko'chirilgan. Sarlavhalar surxda.

“Qissayi Sayqaliy”ning Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondidagi yana bir qo’lyozma nusxasi 53 inventar raqami ostida saqlanib kelmoqda.

Bu nusxa 510 sahifadan iborat bo’lib, 1357 hijriy yili noma’lum kotib tomonidan yirik nastaliq xatida qora siyoh bilan ko’chirilgan. Sarlavhalar qizilda. Ba’zi o’rinlarda sarlavhalar uchun o’rin qoldirilgan. Bu qo’lyozma mulla Shohyaqub domla mulki bo’lganligi haqida muqovada qayd bor.

Bizda ham uning o’ndan ortiq nusxasi mavjud.Ulardan to’liq va yaxshi holatda saqlanganlari 22346 inv. va 27633 inv. nusxalaridir. Ularni o’zaro solishtirish jarayonida ko’plab tafovutlar mavjud ekanligi aniqlandi.

Ikkala nusxa ham an’anaviy hamd, na’t, choryorlar madhi va munojot bilan boshlangan. Ammo misralar 27633 inv. da soni 76 ta, 22346 inv. da esa 74 tani tashkil etadi.

27633 raqamli qo’lyoma	22346 raqamli qo’lyozma
Sano ul podshohi lomakona,	Sano ul podshohi lomakona,
Sifoti zohir zoti nihona.	Sifoti zohir zoti nihona.
Makonsizdur otin kun makona,	Makonsizdur otin kavni makoni,
Jihatsizdur otin jumla jahona. [1]	Jihatsizdur otin jumla jahona.[2]

misralari bilan 27633 inventar raqamidagi qo‘lyozma nusxalar o‘zaro qiyoslanganda,quyidagi baytlarning tushirib qoldirilgani aniqlandi:

1. Aningdur daryoyi su’ning qari bo‘lmas,
Jahonda mazhari amvoj erus bas.

Yuqoridagi misra hamd qismidan tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari quyidagi baytlar na’t qismida qatnashmagan:

2. Ki ul nuridin yaratdi so’ngra ashyo,
Yo‘q ersa, yo‘q edi hech qaysi aslo
3. Erur anga xudodin soni yo‘q avn,
Tufaylidin berildi ikki kun.

Hamd va na’t qismlarining bunday farq qilishi ,albatta, diqqatimizni tortdi.Endi ularning qay biri mukammalroq nusxa ekanligini aniqlash zarur.

Sayqaliyni tilini o’rganmasdan turib, u haqida gapirib bo‘lmaydi. Binobarin, san’atkorning tildan, uning ifoda imkoniyatidan qanchalik mahorat bilan foydalangani asarning badiiy qimmatini oshiradi. Sobir Sayqaliyning “Qissayi Sayqaliy” dostonida turkiy adabiy til butun jozibasi, keng ifoda imkoniyati, badiiy-estetik quvvati bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, asarda choryorlarning Islom diniga qo‘shgan hissalarini tasvirlashda, hikoya mazmuniga mos o‘xshatishni qo‘llaydi.Choryorlarning birini ahboblar bazmi chirog‘iga, ikkinchisini ilm koniga, yana birini din-u dunyo chirog‘iga va to‘rtinchisini ikki daryo g‘avvosiga va mazhab quyoshiga o‘xshatadi:

Bayoni alqori chahoriyor Kerom
Ki etdiy emdi yoronig‘a alqob,
Alar erdi ravoniqi yaxshi as’hob.
Abu Bakr erdi ul ibn Kajjof,

[1] Қиссаи Сайқалий, 2-бет.
[2] Қиссаи Сайқалий, 2-бет.

 Aning sha’ninda erdi sidqi insof.
Ki andin so’ngra Umar ibn Xattob.
Adolatni chirog’i biz kim ahbob.
Ki andin so’ngra Usmon ibn Affon,
Viqori ilm, hilmki ul edi kom.
Ali Ibn Abu Tolib kim andin,
So‘ng erdi el aro g‘olib kim andin.
Payg‘ambarg‘a ikkisi erdi dommot,
Payg‘ambarg‘a ikkisi bil muniyot.
Alar erdi chirog’i dini dunyo,
Alar erdi sanoyi ikki daryo.
Alar erdi safo afzoyi mazhab.
Saodat bir chindin ul to‘rt Kavkab.
Chiqib qilg‘on bu ummatlar hidoyat.
Qilib dohalqayi bobi diyonat,
Alar erdi amiri, shahri islom.
Hududi, shahri, payg‘ambarni anjom.
Qilib o‘tgan alar erdi jahona.
Alardin qoldi ravshan dini zamona,
Alarning tavsifi haddin fuzundur.
Yozub bo‘lmas birin yuz ming tugundur.
Qilib so‘z inoyatdin, anbiyodin bituray,
Intihosin kar balodin.[4-b][3]

Shoir bu she‘riy parchada tashbihning imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Bu orqali esa, tasvirning yorqin bo‘lishiga, teran mazmun, ohorli talqin vositasida asarning ta’sir kuchini oshirgan. Mazkur iqtibosning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, shoir bu badiiy lavhada asarning g‘oyasini birdaniga bayon etmaydi.Voqelik tasviriga bob so‘ngida xulosa yasaydi. Asardan ko‘zlangan maqsad Imom Hasan va Imom Husayn kechmishlarini badiiy talqinidir.Shu bois payg‘ambarlar tarixi haqida hikoya qilinar ekan, voqealar tasviri ustalik bilan ikki imom qismatiga bog‘lanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, Sobir Sayqaliy doston qahramonlari xarakterini, ruhiy dunyosini tasvirlashda tarixiylik nuqtai nazaridan yondashadi. “Qissayi Sayqaliy”da Karbalo fojiasi insoniyat tarixi ko‘zgusida tasvirlangani ham fikrimiz dalilidir. Asarda Odam Atodan tortib to Hazrati Hasan va Hazrati Husaynlarning shahid bo‘lgan vaqtlarigacha bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar, afsona va rivoyatlar o‘rin olgan. Ularda asosan Payg‘ambarlar tarixi va ularning hayotlari davomida islom dinini yoyish maqsadida boshlaridan kechirgan voqealar tafsiloti yetakchilik qiladi.

Asarda har bir qissadan so‘ng, g‘azallar berilgan. G‘azallarda qissaning ma‘nosi to‘la aks etgan. Odam Ato qissasidan so‘ng, ushbu g‘azal keltirilgan:

Hech kim olam aro mundoq baloni ko‘rmadi,
Ko‘rdi har kim bir a’zom-u,andoq a’zoni ko‘rmadi.
Base suvsizdin guli bog‘ini nabi bo‘ldi xazon.

[3] Қиссаи Сайқалий, 4-бет.

Hech gulshanda kishi mundoq havoni ko‘rmadi.
Ibtilo, anbiyo, avliyo-u bisyor edi,
Lek hech qaysisi mundoq anbiyoni ko‘rmas
Bas nechuk kimdur davron bul balog‘a yig‘lamay,
Har balo ko‘rdi, baloyi kar baloni ko‘rmadi.
Bul jahon ko‘hna motamsaro ichra falak
Sayqaliy dil-u xastadek sohib-u a’zoni ko‘rmadi.[1,6][4]

Yuksak mahorat va so’z sehridan foydalana olish qobiliyati birgina g’azalida ham namoyon bo‘ladi. Sayqaliy turkiy til imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Darhaqiqat,Sayqaliy o‘xshatish san’atini qo‘llashda benazirdir. Baloni, a’zoni, 0havoni, anbiyoni so‘zlari qofiyani shakllantirgan.

Doston matnidagi sarlavhalarning har xilligi, ularning turli tillarda ekani, bir qo’lyozmada mavjud sarlavhalar keyingi nusxada yo’qligi,ayrim qo’lyozmalarda boblar sarlavhalanmagani, yoki bir necha bob bir umumiy sarlavha ostida bayon qilinishi. Bu ham asosiy farqlaridan biridir.

“Qissayi Sayqaliy” asari Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy”si singari yozilgan asar bo’lib, unda payg’ambarlar tarixi nazm yo’li orqali bayon qilingan. Shoir payg’ambarlar tarixini Odam atodan boshlab, Rasuli akram avlodlari tarixi bilan yakunlaydi.

Sayqaliy Odam Alayhissalom qissasini bayon qilishda Qur’oni Karim va din tarixiga manbalardan foydalangan. Ammo Sayqaliy asarda bu qismni ixcham va tushunarli qilib keltiradi. Rabg’uziyning asari va boshqa qissalarda bu hikoya ancha yirikroq hajmda berilgan. Ularda ,avvalo, Olloh ta’olo Odam Atoni yaratmoq maqsadida Jabroilga, so’ngra Isrofil, keyin Mikoil va nihoyat Azroil alayhissalomlarga yer yuzidan bir hovuch tuproq keltirmoqqa amr qilishi, nihoyat Azroil yer yuzidan tuproq keltirishi, undan loy yasalib, Odam Ato yaratilishi bayon etilgan. Sayqaliy odam qiyofasidagi loyga qirq kun yomg’ir yog’ib turganligini aytadi. “Qissasi Rabg’uziy asarida esa qirq yil qilib ko’rsatilgan. Shundan so’ng Odam Ato va Momo Havo bilan behishta yashaganliklari va u yerdan Iblis alayhilla’na tufayli haydalganliklari tasvirlanadi. Sayqaliy bu voqealarni to’g’ridan to’g’ri matnda yoritadi. Momo Havoga ta’rif bermasligi ham o’ziga xos xususiyatidir.

Haydalganlaridan so’ng ikki yuz yil bir-birlarini qidirganlari va topishganlari voqeasini keltirilgach, ularnin farzandlari Hobil va Qobil voqeasi keltiriladi.

Rabg’uziy esa Odam Ato va Momo havoning Jiddada bir-birlarini topganliklari haqida bayon qiladi. Rabg’uziyning asarida Odam Ato Sarandib, Momo havo esa Jidda tog’larida , Iblis Basraga kelib tushganliklari haqida aytadi. “Qissayi Sayqaliy” asarida ham bu ma’lumotlar keltirilgan, lekin voqealar keng tafsilotlar bilan berilmagan. Sobir Sayqaliy payg’ambarlar tarixini batafsil yoritmaydi. Ular hayoti va islom dinini yoyishdagi faoliyatlari haqida hikoya qilganda ham asosiy urg’uni ularning shu yo’lda uchragan qiyinchiliklari ko’proq yoritadi va bu orqali Imom Hasan va Imom Husayn taqdirining ham ularnikiga o’xshashligini ko’rsatadi.

So’ngra, Hobil va Qobil voqeasi keltiriladi. Rabg’uziy har bir hikoyatdan so’ng Qur’oni Karim oyatlarini keltiradi. Sayqaliy asarining ikkala nusxasida ham voqealar rivoji shu yo’sinda boradi. Sayqaliy Qobil Hobilni o’ldirishi va Odam Atoning bu musibatlarga bardosh

[4] Қиссаи Сайқалий, 6-бет.

berishi kerak ekanligi bilan hikoyani yakunlaydi va Rasuli akram nabiralariga bog'laydi. Qobilni keyingi taqdiriga Sayqaliy to'xtalib o'tirmaydi.

Qobilning Iqlimoni Yamanga olib ketib, o't va bulutlarga sig'inishi, sharob ichishga mukkasidan ketishi tasvirlanmagan. Sayqaliy Imom Hasan va Imom Husayn qotillarining qanday jazolangani hikoyasini keltiradi. Bu haqida Muso Rizo asarida keltirilganini aytib o'tadi. Hikoyatga binoan, Hazrati Husayn qotili oyoq-qo'llarini bog'lab yonib turgan tobutga solinadi va do'zaxga tashlanadi.

Sayqaliy Jabroil alayhissalomning Imom Husayn haqida Rasuli akramga bergan xabarlariga alohida bob yozadi. Unga ko'ra , kunlardan bir kun Rasuli akram Imom Husaynni tizzalarida olib o'tirgan paytlarida orqasida bir nishonani ko'radilar.Bu yerda g'azal ham beriladi.

Sobir Sayqaliy qissasida Qur'oni karim syujetlari bilan chambarchas bog'liq. Ularda Nuh payg'ambar, Ibrohim alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Shiys alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha va uning avlodlari rivoyat qilingan. Sobir Sayqaliy o'zidan ilgari yaratilgan payg'ambarlar tarixiga oid asarlardan ilhom oladi. "Surai Yusuf alayhissalotu vasallomning nozil bo'lganining sababi" bobida keltirilgan voqealar va Quroni karimdagi suralar o'zaro mos keladi. Bu sura Yaqub va Yusuf alayhissalom haqida bo'lib,bobda ham shu ma'lumotlar keltirilgan. Yusuf alayhissalomning akalari uni quduqqa tashlab, uning ko'ylagini qo'zichoq qoniga bo'yashadi. U quduqda uch kun bo'ladi va karvondagilar orqali qutqariladi. Shundan so'ng qul qilib sotiladi. Bu orada Ya'qub alayhissalom farzand dog'ida kuyib, daraxtga chiqib, uning qaytishiga umid qilishi, dard chekkani haqida "Kelmadi" radifli g'azali qissada keltiriladi.

Bibi Fotima tagi devorda o'tirib bul g'azalni o'qig'oni

Solmog'il hech bandag'a yo Rab mana solg'on g'ami,
Oh-u dardi olud ila to olmag'ay o't olami.
G'am biyobonida qolmish man otamdin ayrilib,
Kabai maqsudi chun etgay bu yoshkim zam-zami.
Man otamdin o'zga kavsar sharibatin no'sh aylamam,
Oqsatun jil manga dam-dam bu ayodin istami.
Oftobi olam oroyim otam payg'ambarim,
Kim qachon bo'lg'ay firoqin shomu subh urg'ay dami.
Ey charog'i chashmi olam sohibi meroj otam,
Ulki asror ilohini san erdin mahrami.
Ey zani dil xasta borsang ul shohanshoh oldig'a,
Yuz salom arza birla yetkaz anga nolai mani.
Sayqaliy miskin hisoridur hisori g'am aro,
Solmag'il hech bandag'a yo Rab mana solg'an g'ami. [159b][5]

Bu g'azalda Bibi Fotima ya'ni Muhammad alayhissalomning qiz farzandlarining dardlari va otalariga murojaatlari berilgan. Sayqaliy xalqqa tushunarli va sodda tilda

g'azallar yozgan. Asarning mashhur va ko'p o'qilishiga ham sabab shundadir. Shu o'rinda Sayqaliyning dunyodan shikoyat qilgani ajoyib tarzda beriladi.

[5] Қиссаи Сайқалий, 159-бет.

Kel endi Sayqaliy jahon motamsarodur,
Ko’z ochib yummayin o’tib borodur.
Chopib o’tdi alar kemtig’i islom,
O’lirdi qoldi bu daftarlara nom.
Sanun sanni qoluri jurukach,
Jadal qil nazmi targ’a ertayu kech.
Ki shoyad qolsa bul sandin nishona,
Madad ista alardin g’oyibona.
Muhammad erdi olam muqtadosi,
Adashgan ummatining rahnamosi.
Ki ul er o’ldi deb ovoza bo’ldi,
Eshid aytay nechuk andoza bo’ldi. [24b][6]

Bu so’zlar orqali xalqqa tushunarli hikoyatni so’zlay oldilar. Sayqaliyning boy merosini o’rganish orqali uning sohib devon ekanligini ko’ramiz.

Rasuli akramning betoblikdan masjidga ham chiqolmagani, sahobalar masjidda iztirob bilan o’tirgani tasvirlanadi. Bilol Rasulullohdan xabar olgani uylariga boradi. Choryorlar Rasullohni ikki yonlaridan ko’tarib masjidga olib keladilar. Rasulu akram farzu sunnat namozlarini o’tirgan holda o’qib bo’lgach, mehrobga suyanib, yuzlarini sahobalarga qaratib, eng so’nggi xutbalarini o’qiydilar va sahobalar Rasuli akramning bu holatlarini ko’rib yig’laydilar. Sobir Sayqaliy Rasuli akramning vafoti munosabati bilan motam so’zlarini izhor etib “Vafotnoma” nomi bilan marsiya bog’laydi. Unda shoir Rasulullohning shanba kuni vafot etgani, vafotlari oldidan Ukkoshaning qasos haqidagi lavhasi, choryorlarning unga tanbeh berganlari, Ukkoshaning nubuvvat muhrini ko’rishga muvaffaq bo’lgani, Rasuli akramning sahobalar tushlarining ta’birini so’zlab bergani muxtasar bayon etiladi. Marsiya Rasulullohning Azroil va Jabroil alayhissalomlar bilan ummatlari haqidagi savol-javoblari bilan tugaydi. Bobni shoir o’z-o’ziga nasihat bilan yakunlaydi. Shundan so’ng bir juhudning islomga kirgani to’g’risidagi hikoyat keltiriladi.

Xulosa. “Devoni Sayqaliy” qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, asarning bizgacha yetib kelishida qo‘lyozma ko‘chirish an’anasi muhim o‘rin egallagan. Turli nusxalarning mavjudligi shoir ijodining o‘z davridan keyingi davrlarda ham keng tarqalganini va kitobxonlar orasida muayyan qiziqish uyg‘otganini ko‘rsatadi.

Qo‘lyozma nusxalarining o‘xshash jihatlari, avvalo, ularning asar mazmuni va shoir ijodiy merosini saqlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nusxalarda asarning asosiy g‘oyaviy-badiiy mazmuni, she’riy shakllari va Sayqaliy ijodiga xos diniy-falsafiy hamda axloqiy-didaktik qarashlar saqlanib qolgan. Sayqaliy she’riyatida islomiy va irfoniy mazmunning muhim o‘rin tutishi zamonaviy tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Nusxalarning farqli jihatlari esa ularning ko‘chirilish davri, kotiblik an’anasi, yozuv xususiyatlari, tarkibi, matnning joylashish tartibi va ayrim leksik-grammatik hamda imloviy tafovutlarda namoyon bo‘ladi. Ayrim qo‘lyozmalarning boshqa asarlar bilan birga majmua shaklida ko‘chirilgani, boshqalarining esa mustaqil devon sifatida shakllangani ham ularning kitobat tarixidagi farqlarni ko‘rsatadi. Masalan, Buxoro adabiyot va san’at muzeyida

[6] Қиссаи Сайқалий, 24-бет.

saqlanayotgan ayrim nusxalar majmua tarkibida bo‘lib, ularda Sayqaliy devoni boshqa mumtoz asarlar bilan birga joylashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanov B.K. Sobir Sayqaliy lirikasida she’riy san’atlarni qo‘llash mahorati // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. — 2025. — №1/4. — B. 71–75. Мамун Академия
2. Jumanov B.K. Poetics of Sabir Saikali’s Poetry // Educational Research in Universal Sciences. — 2023. Erus
3. Jumanov B.K. O‘zbek adabiyotida Sobir Sayqaliy asarlarining irfoniy tadqiqi // Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. — 2024. — Vol. 4. — №6. ScienceBox
4. Sobir Sayqaliy. “Devoni Sayqaliy”. Qo‘lyozma nusxalar. — Buxoro adabiyot va san’at muzeyi fondi. BuxoroManba
5. Sobir Sayqaliy. “Qissayi Sayqaliy”. — Toshkent: Fan, 1960.
6. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
7. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
8. Abdug‘afurov A. Qalb qa’ridagi qadriyatlar. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 1998. — 216 b.